



UDK:096

Baxriddin PRIMOV

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti

E-mail: baxriddinprimov57@gmail.com

International school of finance technology and science insitut dotsenti, PhD M.Aytbayev taqrizi asosida

CYBER INFORMATION IN THE INFORMATION AGE SECURITY

Annotation

Our article, based on the results of our scientific research, is aimed at highlighting the specific cyberfactors of processes occurring today in connection with the development of information technologies. On the one hand, humanity has entered the information age, and on the other hand, it is leading to the struggle against its problems. In this work, we want to focus on cyber fraud and cyber extortion.

Key words: Cyber threats, cyberterrorism, online-cyberattacks, cybercrime, cyber fraud, cyber extortion, cybersecurity, and others.

КИБЕРИНФОРМАЦИОН В ИНФОРМАЦИОННОЙ ЭРЕ БЕЗОПАСНОСТЬ

Аннотация

Наша статья, основанная на результатах наших научных исследований, заключается в освещении специфических киберфакторов процессов, происходящих сегодня в связи с развитием информационных технологий. С одной стороны, человечество вступило в век информации, а с другой - ведет к борьбе с ее проблемами. В данной работе мы хотим остановиться именно на киберфрингентах и кибервымогательстве.

Ключевые слова: Киберугрозы, кибертерроризм, онлайн-кибератаки, киберпреступность, киберфрингенты, кибервымогательство, кибербезопасность и другие.

AXBOROT ASRIDA KIBER INFORMATSION XAVFSIZLIK

Annotatsiya

Imiy-tadqiqotlarni natijasi asosida berilayotgan maqolamiz bugungi kunda informatsion texnologiyalar rivojlanishi bilan bog'liq holda amalga oshayotgan jarayonlarning o'ziga xos kiber holatlarini yoritishdan iborat. Bir tomonda insoniyat axborot asriga kirib kelgan bo'lsa, ikkinchi jihatdan uning muammolari bilan kurashishga olib kelmoqda. Ushbu ishimizda aynan, kiber fribganlar va kiber tovlamachilik haqida to'xtalmoqchimiz.

Kalit so'zlar: Kiber tahdidlar, kiber tarrorizm, onlayn-kiber xujumlar, kiber jinoyatchilik, kiber fribganlar, kiber tovlamachilik, kiber xavfsizlik va boshqalar.

Kirish. Kishilik jamiyati bugungi davrdagidek taraqqiyotning yuksak marralarini hozirgidek bunchalik ildam bosib o'tmagan. Axborot bu imkoniyatlarni amalga oshirmoqda va informatsion texnologiyalar esa sharoit yaratib bermoqda. Axborotga to'yingan jamiyatlarda bu borada muhim tezkorlik bilan birga muammolarning paydo bo'lishiga ham olib kelmoqda. Bu esa kiber xavfsizlik choralarni kuchaytirishni talab etmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Axborotning mohiyati to'g'risidagi turli nuqtayi nazarlardan kelib chiqib, axborot atributiv va funksional xususiyatlarga ega, deb ta'kidlash mumkin. Ba'zi bir mualliflar axborotning atributivligini tan olishib, uni materiyadagi barcha moddiy obyektlarga taalluqli xususiyat sifatida ta'riflashmoqda (B.Axlibininskiy, L.Bajenov, B.Biryukov, K.Morozov, I.Novik, L.Petrushenko, A.Ursul, O.Fayzullayev, M.Abdullayeva, R.Imomaliyeva, I.Saifnazarov, S.Sanginov, B.To'rayev, B.Karimov, Sh.Qo'shoqov, N.Shermuxeimedova, G.G'affarova, E.Izzetova, A.Tulepov, M.Yoqubova, Muhammad Amin Yahyo va boshqalar). Lekin yuqorida ko'rsatilgan olimlar axborotlashgan davrda kiber xavfsizlik haqida izohlar keltirmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda global dunyo yuksak informatsion texnologiyalarni yaratish orqali insonlarni va ularning kapitallarni boshqarishga urinmoqdalar. Xalqaro maydonda bir tizimga bog'langan moliyaviy jarayonlar kapitallarni paydo bo'lishi, ko'chishi va hisob

raqamlarda paydo bo'lishi SWIFT tizimiga bevosita bog'liq. Davlat va jamiyatlarning muhim funktsiyalaridan biri bu SWIFT pul o'tkazmalarini (SWIFT o'tkazmalari) o'z tizimi orqali amalga oshirishdir. Bu tizimlar ham to'la himoyalangan (germetik) emas. Aynan, shunday holatlar kiber xuruj va jinoyatchiliklarning ko'payishiga olib kelmoqda. Bu bizdan shunday jarayonlarni analiz-sintez, ilmiy va metodologik jihatdan tahlil etish kerakligini ko'ratadi.

Tahlillar va natijalar. Axborot asri, deya ta'riflanayotgan XXI asrda internet tarmog'ining qulayliklari, axborot tarqatishdagi ko'lami va tezkorligini boshqa biror tizimga qiyoslab bo'lmagligini mutaxassislar etirof etmoqdalar. Internet haqiqatdan ham, mazkur tizim bugungi kunga kelib o'rgumcha to'ridek jahon axborot makonini o'rab oldi.

XXI asrga kelib mo'jazzgina kulbadan turib dunyoga tahdid solish, insoniyat taqdirini o'zgartirishi mumkin ekanini ham ana shu tizim "qulaylik"lari nomoiish etmoqda. TASS 2018 yil 25 sentyabrda yetkazgan ma'lumatga ko'ra "BMT Bosh kotibi Antonio Guterres BMT Bosh Assambleyasining 73-sessiyasining yuqori darajadagi umumiy siyosiy munozarasining ochilishida so'zda kiber jinoyatchilik oqibatda jahon iqtisodiyotiga har yili 1,5 trllion AQSh dollaridan ko'p zarar yetkazmoqda"[1] deb ta'kitlagan. Shuningdek "Mutaxassislar tomonidan kiberjinoyatchilik zarar 2025 yiliga 10,5 trllion AQSh yetadi, deb taxmin qilmoqda. Global

kiberxavfsizlik xarajatları 2022 yil 170.4 milliardga yetishi ko'rsatilgan"[2].

Ta'kidlash joizki, internet orqali uyushtirilayotgan bunday kiberhujumlardan asosan ana shu tizimdan foydalanayotgan mamlakatlar ko'proq ajiyat chekmoqdalar.

Ma'lumki, bugungi kunda dunyoda "Internet foydalanuvchilari 5.8 milliardni ya'niy 63 foizni tashkil etayotgan bo'lsa, dunyo aholisining 37 foizi yoki 2,9 mlrd odam Internetga umuman ulanish imkoniyatiga ega emas. Hozircha internetga bog'lanish imkoniyati bo'yicha AQSh 91.8 foizni tashkil etib ustunlikka ega bo'lgan bo'lsa, ayni paytda Buyuk Britaniya 97.8 foiz internet abanenti mavjud bo'lib dunyoda ushbu tarmoqdan foydalanish bo'yicha yetakchilik qilmoqda. Undan keyingi o'rinlarni esa Yevropa davlatlari egallamoqda. Ayniqsa, "ko'hna qit'a"ning ayrim mamlakatlari, xususan, Germaniyada esa 93.1 foiz, Frantsiyada 92.6 foiz, Italiyada 74,5 foiz, shuningdek, ba'zi muxim hamda aholisi ko'p davlatlarda Kanada 93.8 foiz, Rossiyada 88,2 foiz, Braziliyada 84.3 foiz, Yaponiyada 82.9 foiz, Xitoyda 73.7 foiz, Hindistonda 32,8 foiz"[3] va nihoyat O'zbekistonda 76 foiz interdetdan foydalanuvchilar bo'lib, aynan, ana shu davrlarlar kiberhujum, deya atalgan balodan ko'piroq aziyat chekayapti;

dunyo davlatlarining kiber jinoyatchilardan ko'rgan zarari yildan yilga o'sib bormoqda. Jumladan:

□ 2022 yilda kiberjinoyatchilar qurbonlardan 8,44 trillion dollarlik mablag' yig'digan;

□ 2023 yil oxirigacha kiberjinoyatchilar qurbonlardan 11,50 trillion dollarlik mablag' yig'digan;

□ 2024 yil oxirigacha kiberjinoyatchilar qurbonlardan 14.57 trillion dollarlik mablag' ega bo'lishi taxmin etilmoqda; [4]

bu ko'rsatgichlar soni 2027 yilga kelib jamiyatgan keltirgan zararlar miqdori 23.82 trillion dollardan oshib ketishini muraxasislar ta'kidlashmoqda.

Shunidek:

* osiyo-mintaqasidagi ba'zi tashkilotlarning 26 foizi yil davomida kiberjinoyatchilik faoliyati bilan shug'ullangan;

* yevropa-mintaqasidagi ba'zi tashkilotlarning 24 foizi yil davomida kiberjinoyatchilikni faoliyati bilan shug'ullangan;

* □ shimoliy Amerika-mintaqasidagi ba'zi tashkilotlarning 23 foizi yil davomida kiberjinoyatchilikni faoliyati bilan shug'ullangan;

□ * afirka mintaqasidagi mintaqasidagi ba'zi tashkilotlarning 14 foizi yil davomida kiberjinoyatchilikni faoliyati bilan shug'ullangan;

□ * lotin Amerika-mintaqadagi ba'zi tashkilotlarning 13 foizi yil davomida kiberjinoyatchilikni faoliyati bilan shug'ullangan [5].

Yuqorida qayd etilganidek, bu hududlardagi aholining aksariyati internetni nafaqat axborot manbai, balki kommunikatsiyaning sodda usuli, ya'ni savdo-sotiq, to'lovlarni amalga oshirish yo'li, deb ham qabul qilganlarki, bu mazkur jinoyatning chuqur ildiz otishida asosiy omil bo'lmoqda. Ma'lumki, g'arb mamlakatlari aholisining asariyati o'z jamg'armalarini banklarda saqlashadi. Bank operatsiyalarini amalga oshirishda esa onlayn banking yoki mobil-banking tizimidan foydalanadi. Kiberjinoyatchilar esa aynan ana shu nuqtalarga ko'proq zarar bermoqdalar.

Haqiqatan ham, keyingi yillarda global muammolar qatorida tilga olinayotgan virtual hujum, yangi kiberjinoyatchilik virusli dasturlarini tarqatish, parollarini buzub kirish, kredit karta va boshqa bank rekvizitlaridagi mablag'larni talon-taroj qilish, shuningdek, internet orqali qonunga zid axborotlar, xususan, bo'hton, pornografik ma'lumotlarni tarqatish bilan bashariyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga keskin xavf solayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlarida ham har yili

dunyoda 2 millionga yaqin shaxslarning shaxsiy ma'lumotlari xakerlar tomonidan o'g'irlanayotgani va bu firibgarlar 1 milliard AQSh dollari miqdoridagi moliyaviy zarar bilan yakun topayotgani e'tirof etilmoqda. Ba'za foydalanuvchilarga "Yolg'on va'dalar, ijtimoiy tarmoqlar orqali manipulyatsiya qilish va shantaj qurbonning shaxsiy va professional hayoti uchun halokatli bo'lishi mumkin"[6] aytiladi.

Bundan ham yomoni mazkur tahdid o'zidan jinoyiy iz qoldirmasligi bilan ham o'ta xavfli tus olayotgani xalqaro ekspertlarni xavotirga salayotir. Shu bois dunyo hamjamiyati, aniqrog'i, har bir mamlakat, avvalo, internet tizimiga juda mustahkam himoya tizimi o'rnatib, ushbu xavfdan xoli bo'lishga itilmoqda. Ammo, afsuski, bunday himoyalalanishning yagona tizimi hozircha mavjud emas. Shu bois global miqyosda mazkr jinoyatning qamrovi soat sayin kengayib bormoqda. Komp'yuter xavfsizlik dasturlari ishlab chiqaruvchi "Symantec" kompaniyasi ma'lumotlariga qaraganda, bir kechakunduzda sayyoramizda xakerlar tomonidan 100 ga yaqin kiberhujumlar sodir etilmoqda. Oqibatda, ayniqsa, yirik kompaniya va tashkilotlarning iqtisodiy mavqeiga jiddiy putur yetayapti. Yetakchi iqtisotchilarning fikricha, ana shunday kutulmagan hujumlar tufayli yetkazilgan zararni qoplash uchun jahon miqyosida "2022 yilda taxmin 8.4 trillion, 2023 yilda esa 11 trillion va bu ko'rsatgich 2026 yilga kelib 20 trillion"[7] AQSh dollariga teng mablag' sarflanishi nazarda turilgan. Bugun hatto yaxshi himoyalangan xalqaro tashkilotlar ham komp'yuter josusligidan xavotirga tushayotgani bejiz emas. Maxfiy ma'lumotlarning oshkor etilishi natijasida kompaniyalarning katta miqdorda zarar ko'rishi mumkinligi shu ma'noda barchani birdek xavotirga solayotir. Misol uchun, bundan bir necha yillar oldin xakerlar yirik "Nasdaq" birjasining yopiq internet servisini buzub, alamashladigan ichki ishonchli ma'lumotlaridan bir qismini qo'lga kiritishga muvaffaq bo'lganlari ko'pchilikni xushyorlikka undagan bo'lsa kerak. Dunyodagi eng yirik kompaniyalarga qaratilayotgan bunday josusliklar tufayli 2016 yilda SWIFT xalqora pul o'tkazmalar tizimiga xakerlar hujumidan 81 million dollar zarar ko'rgan. Ular qatorida mashhur "Apple" kompaniyasi va eng katta ijtimoiy tarmoqlar, deya tan olingan "Facebook" va "Twitter", shuningdek, "The New York Times", "Wall Street Journal", "Associated Press" kabi nashrlar borligi jinoyatning mazkur turi ham qanday to'siqni ham oson zabt etishidan dalolat berayapti. Reuters axborot agentligi mantligi ma'lumotiga ko'ra, bir necha yil oldin "Apple" xodimlari komp'yuter dasturi virusi, aniqrog'i, murakkab troyan virusi ko'rinishidagi kiberhujumga duch kelishgan. Kompaniya vakillarining so'zlariga qaraganda, bunday virus komp'yuterga jiddiy zarar yetkazadi va buzg'unchilarning unga kirishi uchun imkoniyat yaratadi. "The New York Times" mutasaddilari esa mazkur kiberhujumlar ortida ma'lum bir davlatlar manfaati borligini ta'kiladilar. Bu qanchalik haqiqatga yaqinligi hozircha noma'lum.

Ana shu o'rinda ushbu jinoyatlarni qoyilmaqom tarzda bajarayotgan xaker g'alamuslar rahm-shavqat tuyg'usini unutib qo'rgan shaxlar ekanini ham unutmastik lozim. Bugungi kunda axborot texnologiyalarini sohasini puxta egallagan tajribali kasb egalari o'z bilim va mahoratini yovuz maqsadalar uchun ishlatayotganini hech qaysi izox bilan oqlab bo'lmaydi. Kiber o'g'rilar uchun o'tgan asrning 80-yillari eng qulay davr bo'lganini ta'kidlash lozim. Balki shu paytda komp'yuter operattsiyon tizimlari boshqatdan ishlab chiqarilayotgani sabab bo'lgandir. Chunki komp'yuter operattsiyon tizimlarining ancha ko'p zaiflik jihatlari borligi kiber o'g'rilariga qulaylik yaratgan. Aynan shu davrda internetdagi ilk jinoyat ham aniqrog'i, bundan 30 yillar avval sodir etilganini aytish lozim. O'sha paytda global tarmoq ARPANET deb atalardi. O'sha davr xakerlaridan biri Kevin Mitnik Pentagonning komp'yutir

ma'lumotlar bazasini o'g'irlaganlikda ayiblanib 17 yilga ozodlikdan mahrum eilgan edi.

Yildan-yilga kiberjinoatchilar tomonidan yetkazilayotgan moliyaviy zarar miqdori ko'payib bormoqda. Infarmatsion texnologiyalar rivojlangan davlatlarda kiberjinoatchilarning aksariyatini internet firibgarligi, turli yolg'on va bo'xton ma'lumotlar bilan insonlarni o'ziga jalb qiluvchi xavfli viruslar tarqatish tashkil etayotgani ta'kidlanmoqda. Ummon nargi tomonidagi bir qator mamlakatlarda, masalan, AQShning o'zi ham xakerlardan juda katta miqdorda zarar ko'rayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. Mutaxasislarning ta'kidlashicha, global tarmoq, ya'ni internet paydo bo'lib faoliyat ko'rsatayotgandan buyon xaker guruhlar hujumi oqibatida AQSh har yili milliardlab dollar zarar ko'radi. "Professional xakerlar zaifliklarni topish va hujum usullarini

ishlab chiqish uchun dasturiy ta'minotni tadqiq qiladi" [8] shu yo'l bilan daromat topishadi.

Bu dunyoda narkobiznesdan keladigan daromat miqdoridan ham ortiq. Darhaqiqat, bu XXI asrda insoniyat qanday xavf-xatar ro'parasida turganini ko'rsatadimoqda.

Xulosa va takliflar. Shunisi ravshanki, ijtimoiy tarmoq orqali bizga salbiy infarmatsion ta'sir o'tkazish mumkin bo'lgan, ilgari amalga oshiriliagan virtual sayi harakatlar avj olayotgani hech kimga sir emas. Bunday xavf-xatarlarga nisbatan beparvolik va loqaytlikni aslo kechirmasligiga ham guvoh bo'layotgan dunyo ahli unga qarshi kurashishning ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlarini yana ham kuchaytirish ustida bosh qotirmog'i lozim. Shuning uchun xalqaro miqiyosda turli bitim va kelishuvlar ham imzolanmoqda. Biroq, virtual makondagi jinoyatchilik hozircha bunday qonunlarga itoat etishmayapti.

ADABIYOTLAR

1. <https://tass.ru/mezhdunarodnaya-panorama/5602678>
2. <https://clickfraud.ru/statistika-kiberprestuplenij-2022?action=genpdf&id=39820>
3. <https://datareportal.com/reports/digital-2023>
4. <https://earthweb.com/how-much-has-cybercrime-increased/>
5. O'sha manba. <https://earthweb.com/how-much-has-cybercrime-increased/>
6. Кевен Митник Книга: "Искусство обмана: Человек внутри машины" Год издания: 2022 Издательство: Питер
7. <https://www.antivirusguide.com/cybersecurity/cybercrime-cost-statistics/>
8. Крис Анлей и Кевин Бехл Книга "Компьютерная безопасность: Искусство защиты информации" Год издания: 2017 Издательство: Диалектика
9. Primov B. "Axborot global jarayonlarning kuchli ta'sir vositasi". NamDU ilmiy xabarnomasi. www.journal.namdu.uz ISSN: 2181-0427. 2-son 2024. B-209-214
10. Primov B. "Axborotlashgan davrda va ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning kuchayishi". Tamaddinnuri ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal ISSN 2181-8258 "ADAD PLYUS" Toshkent-2024. B-180-185.
11. Primov B. "Axborotlashgan davrda global jarayonlar va madaniyatlar o'zgarishi". O'zMU xabarlari. Toshkent -2024. B-187-191
12. Primov B. "Axborotlashgan davrda axloqiy qadriyatlar" International journal of philosophical studies and social sciences issn-e: 2181-2047, issn-p: 2181-2039 <http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss> Vol 4, Issue 4 (2024)
13. Примов Б. "Ахборотлашган даврда оммавий ахборот воситаларининг ўрни" Фалсафа ва ҳуқуқ. 2024/1 Б-208-211